

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA – QURILISH INSTITUTI

«Kasb ta'limi»
kafedrası

REFERAT

Mavzu: I D R O K

Bajardi: Xamrayeva N
Tekshirdi: Qarshiboyeva R

Samarqand 2016 y.

Mavzu: I D R O K

REJA

1. Idrok haqida umumiy tushuncha.
2. Idrokning turlari va asosiy xususiyatlari.
3. Idrok jarayonida ilyuziya, appersepsiya vagallyusinasiya.
4. Vaqt, masofa va fazoni idrok qilish.
5. Yoshlarda idrokning o'sishi.

Darsning maqsadi: talabalarda idrok to'g'risidagi tushunchalarni hosil qilish. Idrokning turlari, xususiyatlari va bilish faoliyatidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni shakllantirishdir.

Tayanch iboralar: bilish jarayoni, idrok, yaxlitligi, fazo, faqt, masofa, harakat, perseptiv, yangi nerv assosiasiyalari, nerv-fiziologik mexanizm.

Dars o'tish usuli: ma'ruza.

Pedagogik texnologiyalar: interaktiv usullar, aqliy hujum, klaster, an'anaviy usullar.

Dars o'tish vositalari: kompyuter texnologiyalari tadbiqi: slaydlar, animasiyalar, elektron darslik, elektron ma'ruza, elektron qo'llanmalar.

Mashg'ulotning xronologik xaritasi: 1-savol – 20 minut; 2-savol – 15 minut; 3-savol – 15 minut; 4-savol – 15 minut; 5-savol – 15 minut.

Darsning mazmuni:

Idrok yoki qabul qilish shaxsning obyektiv reallikdagi voqyea-hodisalarni va predmetlarni aks ettirishdagi murakkablik, yaxlitlik va to'laligi bilan sezgirlardan farq qiluvchi ruhiy jarayondir. Sezgilari yordamida predmetlarning, narsa va hodisalarning ayrim tomonlari, ba'zi xususiyatlari bilib olinadi. Har bir predmet ki voqyea-hodisada arim belgilardan tashqari turlicha sifatlar va xususiyatlarning yaxlit kompleksi mujassam bo'ladiki, odam ularni butun shakl, yaxlit tarzda aks ettiradi. Shuning uchun ham sezgilarga qaraganda idrok voqyelikni aks ettirishning murakkab tomonidir.

Idrok jarayonida narsalar obrazini to'la aks ettirishning sababi shundaki, odam miyasida hayot davomida turli-tuman qo'zg'ovchilar ta'siri tufayli juda ko'p muvaqqat bog'lanishlar vujudga kelgan bo'ladi. Buning natijasida turmush tajribasiga ega bo'lgan odam o'zi idrok qilayotgan narsasining mohiyatiga darhol tushunib yetadi. Tajribasiz odamda esa bunday xususiyat bo'lmaydi, ya'ni u idrok qilayotgan narsasining tub mohiyatiga tushunib yetmaydi.

Idrokning sezgilarga nisbatan yani bir murakkab tomoni shundaki, har bir predmet, voqyea va hodisa moddiy borliq shakli bo'lgan makon va zamon bilan bog'liq holda qabul qilinadi. Chunki, moddiy borliqda mavjud bo'lib, odam tomonidan idrok qilinayotgan narsa va hodisalar hammavaqt makon va zamon jihatidan bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Demak, oda har bir predmetni idrok qilganda uning fazodagi shakl (kub, uchburchak, doira), katta kichikligini (katta, kichik, mayda) munosabatlarini (boshqa predmetlarga va idrok qiluvchiga nisbatan) hisobga olinadi. Ikkinchidan, har bir predmet idrok qilinganda uning paydo bo'lishi va o'zgarib borish jarayonlariga e'tibor beriladi.

Idrok jarayonida sezgi turlarining barchasidan tashqari boshqa ruhiy holatlar ham ishtirok etadi. Masalan, odam atir gulni idrok qilganda uning chiroyli shaklini, ajoyib rangini, xushbo'y hidini, mayin barglarini yaxlit tarzda qabul qiladi. Demak, atirgulni idrok qilishda ko'rish, hid bilish va teri sezgilari ishtirok etadi. Agar gulni idrok qilishning boshlanishi xotira mahsuli (uning atirguli ekanligini tanib ajratib olishi) bo'lsa, uning turli tomonlari to'g'risida mulohaza yuritish tafakkurdir. Shunday qilib, istagan predmetni yoki voqyea-hodisani idrok qilishda o'sha narsaning mohiyatiga qarab ruhiy holatlarning ma'lum qismidan foydalaniladi. Diqqat, xotira, xayol va tafakkursiz to'g'i, to'liq idrok qilish mumkin emas.

Idrokning nerv mexanizmi ham sezgilarnikidan farq qiladi. Bu fikr idrokka xos nerv-fiziologik asosning murakkabligidir. Idrokning fiziologik asosi bosh miyaning katta yarim sharlar po'stlog'ida vujudga keluvchi murakkab shartli refleks bog'lanishlaridir.

Tashqi ta'sir katta yarim sharlar po'stlog'ida birlashtiriladi, organizmning bir qancha qo'zg'ovchilar ta'siriga reaksiyasi bir-biri bilan bog'lanadi. Har bir predmetdagi xossalarning yig'indisiga qarab odam ularni bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, idrokning fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarning faoliyati bilan bog'liqdir. Odam predmetlarni, voqyealarni faqat ko'rish, eshitish, hid bilish orqaligina emas, balki nutq orqali ham idrok qiladi.

Odam tomonidan tashqi dunyo predmetlarini va voqyea-hodisalarini idrok qilish ikki xil yo'l bilan vujudga keladi:

1. Ixtiyoriy idrok qilish;
2. Ixtiyorsiz idrok qilish.

Shaxsning aniq maqsad asosida muayyan obyektни idrok qilishi ixtiyoriy idrokdir. Ixtiyoriy idrokning zarur shartlari diqqat va kuzatish-kuzatuvchanlikdir. Kuzatuvchanlik qobiliyati shaxsning nihoyatda qimmatli sifati bo'lib, kuzatuvchan odam idrok qilinayotgan narsa va hodisalardagi o'xshashlik va tafovutlarni aniq payqaydi, ularning eng muhim xususiyatlarini bir-biridan tez va to'g'ri ajrata oladi. Kuzatuvchanlik qobiliyati odamning mavjud sharoitini to'g'ri tushunishga, tevarak-trofdagi voqyea va hodisalarni samarali o'rganishga imkon beradi.

Odamning predmet va hodisalarni ma'lum reja asosida izchil ravishda aniq maqsadni ko'zlagan holda idrok qilishi kuzatish yoki kuzatuvchanlik deb aytiladi. Kuzatuvchanlik shaxsning predmet, voqyea-hodisalarni va ularga xos barcha sifatlarni durust, to'g'ri, aniq qabul qilishning zarur sharti hisoblanadi.

Kuzatuvchanlikning muvaffaqiyati kuzatuvchining umumiy psixologik holatlariga bog'liq holda quyidagi shartlarni taqozo etadi: 1). Aniq maqsad asosida kuzatish; 2) kuzatilayotgan narsa haqida ma'lum bilimga ega bo'lish; 3) doimiy va aniq rejali ravishda kuzatish; 4) kuzatuvchi obyektidagi zarur momentlarni darhol payqay ola bilish.

Har bir shaxs predmet yoki voqyea-hodisalarni ixtiyoriy ravishda to'liq va to'g'ri idrok qilishi uun kuzatuvchanlikning yuqoridagi shartlariga amal qilish hamda ixtiyoriy diqqat va iroda kuchidan yetarlicha foydalana olishi zarur.

Shaxsning muayyan maqsadni ko'zlamagan holda u yoki bu narsalarni qabul qilishi ixtiyorsiz idrokdir. Butun diqqati bilan ma'ruza tinglayotgan talaba bir vaqtning o'zida koridordagi shovqinni ham idrok qiladi. Odam gulzorga kirganda, garchi bir nechtagina gulni uzmoqchi bo'lsa ham, gulzordagi boshqa gullarni ham idrok qiladi. Ayrim hollarda oldam bo'lmagan ta'sirotlarni ham idrok etadi (bo'lmagan predmetning ko'zga ko'rinishi, bo'lmagan tovushning quloqqa eshitislihi va h.k.). Bularning hammasi ixtiyorsiz idrokning misollaridir.

Demak, shaxs tevarak-atrof predmetlari va voqyea-hodisalarni ehtiylarga asoslangan holda idrok etadi. Lekin ayrim hollarda ehtiyojlarga asoslanmagan holdagi idrokka ham yo'l qo'yadi.

Ana shundan kelib chiqib, shaxs tomonidan idrok qilinadigan barcha ta'sirotlarni ehg'tiyojlarga asoslangan idrok qilish va ehtiyojlarga asoslanmagan idrok qilish kabi ikki yo'nalishga ajratiladi.

Umuman esa, idrok quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Idrok jarayonida qaysi analizatorning yetakchi rol o'ynashiga qarab: ko'rish, eshitish, teri, hid bilish, ta'm bilish, harakat idroklariga;
2. Materiyaning yashash shakllariga qarab: fazoni, vaqtni, harakatni idrok qilishga;
3. Faoliligiga qarab: ixtiyoriy va ixtiyorsiz kabi idroklarga bo'linadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, idrokka quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Obyektiv reallikda mavjud bo'lmib, sezgi organlariga ta'sir qilib turgan narsa va hodisalarning odam miyasida umumiy tarzda, yaxlit shaklda butun holicha aks etishidan iborat bo'lgan ruhiy faoliyat idrok yoki qabul qilish deb aytiladi».

Idrok shaxsning tashqi olam bilan muosabatlarini ifodalanishdagi murakkab ruhiy jarayon bo'lishi bilan birga, faol jarayon hamdir. Shuning uchun shaxsning aniq obyektни idrok qilishi ma'lum maqsadni amalga oshirishdan iborat bo'ladi.

Idrokning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

A) Predmetlarni to'g'ri va to'liq idrok qilish o'sha predmetlar mansub bo'lgan fonga bog'liqdir;

B) Bir fondagi ikkita predmetni baravariga idrok qilib bo'lmaydi;

V) predmetlar katta fonda kichik, kichik fonda esa katta ko'rinadilar;

G) predmetni to'g'ri va to'liq idrok qilish o'sha predmet bilan ko'z o'rtasidagi masofaga bog'liqdir. Predmet va ko'z o'rtasidagi masofa qancha uzoq bo'lsa, shuncha predmet o'z aslini yo'qotgandek ko'rinadi. Masalan, samolyot qancha baland ko'tarilsa, shuncha uning hajmi kichrayib ko'rineradi. Odam besh qavatli binodan uzoqlashavergan sayin uning hajmi kichraygandek bo'lib boraveradi. Professor Platonovning «Qiziqarli psixologiya»¹ nomli kitobida keltirilishicha, odam ko'p qavatli imoratni 8-10 kilometrdan, bir qavatli imoratni 5-8 km. Dan, uyning derazasini 4 km.dan; odamlarni 2 km. Dan, oyoq-qo'l harakatini 700 metrdan, kiyim rangi, bosh, basharani 200-300 metrdan; ko'z, burun, barmoqlarni 60 metrdan, ko'z qovog'ini 20 metrdan uncha aniq bo'lmasa-da farqlay olish mumkin:

D) To'g'ri va to'liq idrok qilish (predmetlarni va voqyea-hodisalarni) shaxsning turmush tajribasiga, bilimiga, diqqatiga, kasbiga va tafakkuriga bog'liq bo'ladi.

Odamlar turmush tajribasiga va bilimlariga qarab predmetlarni va voqyea-hodisalarni turlicha idrok qiladilar. Bundan tashqari, bir narsaning o'zini har bir kasb egasi o'z kasb-kori nuqtai nazaridan qabul qiladi. Masalan, «Ildiz» tushunchasini

Biolog boshqacha, matematik, tish doktori, tarixchi va filolog boshqacha idrok qiladi. Ya'ni, «ildiz» so'zini biolog o'simlik ildizi, matematik ildiz chiqarish (hisoblash), tish doktori tishning ildizi, tarixchi va filolog esa biror voqyeaning boshlanishi, sodir bo'lishi sababi sifatida idrok qiladi;

Ye) Voqyealarni to'g'ri idrok qilish shaxsning g'oyaviy yo'nalishi, ideali, e'tiqodi va dunyoqarashiga bog'liqdir. Har bir shaxs o'zining g'oyaviy yo'nalishiga assolanib, sodir bo'lib turgan voqyea-hodisalarning mohiyatiga yondashadi, ularning kelajagini tasavvur etadi.

Idrok jarayonida appersepsiya, illyuziya va gallyusinasiya hodisalari ham mavjuddir.

Appersepsiya¹ idrok jarayonining shaxsning avvalgi bilim va tajribalari, qiziqishi, ehtiyoj va odatlari, umuman psixik hayotining umumiy mazmuniga bog'liq bo'lishidir. Appersepsiya hodisasi tufayli kishilar idrokining mazmuni bir-biridan farq qiladi. Shaxslar aynan bir xil narsani o'z bilim darajasi, turmush tajribasi, dunyoqarashi hamda ijtimoiy kelib chiqishi va kasbiga qarab turlicha idrok qiladilar. Masalan «reaksiya» so'zini kimyogar moddalarning kimyoviy yo'l bilan birikishi deb, sosiologlar tarixiy taraqqiyotda orqaga chekinishi deb, fiziologlar va psixologlar esa organizmning tashqi ta'sirotda qaytargan javob harakat deb idrok qiladilar.

Appersepsiya termini ba'zan aniqligi, to'liqligi, yorqinligi kabi sifatlari ma'nosida ham ishlatiladi. Appersepsiya barqaror va vaqtincha deb ataluvchi ikki qismga bo'linadi. Barqaror appersepsiya shaxsning dunyoqarashi, e'tiqodi, bilimi va madaniy saviyasi, kasbi hamda qiziqishlariga bog'liqdir. Vaqtincha appersepsiya esa faqat shaxsning idrok jarayonidagi emosional holatiga – kayfiyati, ruhlanishi kabilarga bog'liqdir.

Appersepsiya idrokning bizga ta'sir ko'rsatayotgan bir qancha narsa va hodisalar ichidan ayrimlarini ajratib olishini ta'minlabgina qolmay, ba'zan noto'g'ri idrok qilishga sabab bo'lishi ham mumkin.

Shunday qilib, idrok jarayoniga odamning bilim boyligi, ishonch – e'tiqodi, dunyoqarashi, qiziqishi, ehtiyojlari va butun ruhiy hayot mazmunining ta'siri appersepsiya deb yuritiladi.

¹ К.К.Платонов. Љизилъарли психология. «Ўълитувчи» нашриъти, Тошкент, 1971, 112-бет.

¹ Апперцепция – лотинча «ап» (тааллуълъи) ва «перпептио» љабул љилиш демакдир.

Idrok jarayonda illyuziya² hodisasi ham bor. Sezgi organlariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni noto'g'ri yoki buzib idrok qilishdan iborat bo'lgan psixik hodisa illuziyadir.

Narsalarni noto'g'ri, buzib idrok qilish shaxsning sezgilari va idrokining xususiyatlariga bog'liqdir. Agar odamning predmetlarni to'g'ri va to'liq idrok qilishi uchun zarur bo'lgan shartlardan ba'zilar mavjud bo'lmasa, u illyuziyaga yo'l qo'yadi. Muayyan sharoitlarda barcha odamlarda vujudga keluvchi illyuziyalardan tashqari, ba'zan odam kechirayotgan ruhiy holat ta'sirida ham maxsus illyuziya paydo bo'ladi. Qorong'i kechada qattiq qo'rqqan kishiga to'nka yirtqich hayvon bo'lib ko'rinadi. Odam temir yo'ldan uzoqlashavergan sayin temir yo'l liniyalari o'zaro yaqinlashgandek bo'lib boraveradi. Aslida esa bunday bo'lishi mumkin emas. Katta va kichik fondagi sharlarning ko'rinishi ham illyuziyaning misollaridir.

Gallyusinasia¹ real voqyelikdagi narsa va hodisalarning sezgi organlariga bevosita ta'sirsiz odam ongida turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo'lishidan iborat psixik holatdir. Gallyusinasia hodisasi ko'rish, eshitish, hid bilish va boshqa sohalarda ham bo'ladi. Gallyusinasia psixik kasallikning belgisi bo'lib, bosh miya qobig'idagi qo'zg'alish jarayonlarining sustligi natijasida ro'y beradi.

Gallyusinasia ro'y bergan paytda odam hiech narsani idrok qilmaydi. Gallyusinasia obrazlari ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar miyada qoldirgan izlarining g'ayritabiiy ravishda qayta tiklanishi, g'ayrmi tabiiy tasavvurlarning ongda paydo bo'lishidir.

Ikkinchi xil qilib aytganda, gallyusianasiya uyg'oqlik holatida tush ko'rish demakdir. Yo'q narsalarning ko'zga ko'rinishi, bo'lmagan ovozlarning quloqqa eshutilishi, bo'lmagan hidlarning dimoqqa urishi, yo'q narsalarning badanga tekkanday bo'lishini sezish kabilar gallyusinasianing misollaridir.

Odam barcha real predmetlar singari masofa, vaqt va fazoni ham idrok qiladi.

Obyektiv borliqdagi barcha predmetlar masofadan ma'lum joy egallaganligi va vaqtga qarab o'zgarishi masofa va vaqtni idrok qilishga imkon beradi.

Odam masofani monokulyar² va binokulyar³ yo'l bilan idrok qiladi. Monokulyar yo'l bilan idrok qilganda odam narsalarni o'z holatida (katta-kichikligida) ko'radi. Chunki ko'z predmetdan uzoqlashgan sayin predmetning to'r pardadagi surati kichirayadi va aksincha. Bu hola predmetning ko'z to'r pardasiga qanday tushishiga bog'liqdir.

Masofani binokulyar idrok qilish predmetlarning hajmini to'g'ri aniqlashga imkon beradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, o'ng ko'zda predmetning asosan o'ng tomoni, chap ko'zda esa chap tomoni aks etadi. Apredmetlarning uzoq-yaqinligini idrok qilishda ikki ko'z o'qining bir nuqtaga yo'naltirilishi muhim ahamiyatga egadir. Bu hol konvergensiya⁴ deb aytiladi. Masofaga qarab ko'z o'qlari yo'nalishining o'zgarishi ixtiyorsiz ravishda sodir bo'ladi. Ko'z muskullarining qisqarishidan yuzaga keluvchi sezish holati predmetlarning egallagan joyini (uzoq-yaqinligini), masofani idrok qilishga imkon beradi.

Har bir predmetning vaqtga qarab o'zgarib turishi vaqtni idrok qilishning sharti hisoblanadi.

Vaqt materiyaning yashash shakllaridan biridir. Vaqtni idrok qilish muayyan obyektiv vaqt birligining odam ongida bevosita aks etishidir. Vaqtni idrok qilish odamning ruhiy hodisalarining almashinishi tufayli ro'y beradi. Vaqtni to'g'ri idrok qilish vaqt birligining (minut, soat va h.k.) obyektiv mazmunga hamda odamning unga bo'lgan munosabatlariga

² Иллюзия – лтин тилидаги «иллузио» сўзидан олинган бўлиб, хато, адашиш, янгилишиш демакдир.

¹ Галлюцинация – лтинча hflucitiftio сўзидан олинган бўлиб, алақлаш, босинъираш, валдираш маъноларини билдиради.

² Монокуляр – лотинча монос – бир, окулис – кўз бўлиб, бир кўз билан идрок љилиш демакдир.

³ Бинокуляр – лотинча бини-икки, окулис-кўз бўлиб, икки кўз билан идрок љилиш демакдир.

⁴ Конвергенция – лотинча «вонвергере» сўзидан олинган бўлиб, идрок љилишда кўз сольъаларининг бир-бирига мослашуви натижасида бир нуътага тўпланишидир.

bog'liq. Odam o'zining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan vaqt birligini tez idrok qiladi.

Vaqtни idrok qilish obyektiv reallikni, real hodisalarning tezligi va izchilligini aks ettirishdir. Odamning vaqtни qabul qilishi tajribaning orta borishi natijasida o'sib boradi.

Vaqt birligining turlicha qg'abul qilinishi organizmning umumiy holatiga va emosional kechinmalarga bog'liq. Organizm toliqmagan vaqtda vaqt birligini to'g'ri idrok qiladi. Agar organizm chvarchagan bo'lsa, vaqt birligi cho'zilgandek qabul qilinadi. Talaba birinchi darsning qanday o'tganini bilmay qoladi. Uchinchi darsning 45 minutlari esa talabani zeriktiro boshlaydi, minutlar sekin o'tayotgandek tuyuladi. Buning sababi organizmning charchay boshlaganidir. Odam yaqin do'sti bilan suhbatlashayotganida, qiziq voqyea sodir bo'layotganda, quvonchli damlarda vaqt birligi yeldek yugurib o'tgandek bo'ladi.

Bir birlikdagi vaqtning (masalan, bir soatning) ba'zan tez o'tishi, ba'zan kishini xunob qiladigan darajada sekin o'tishi fiziologik sabablarga ham asoslanadi. Bosh miya po'stida qo'zg'alish, modda almashinuvi ko'proq yuz bergan vaqtda vaqt tez o'tadi. Tormozlanish jarayonlari ko'proq bo'lganda esa vaqt cho'zilgandek bo'lib qabul qilinadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, odatda odam huzur-halovat, shod-xurramlikda o'tgan vaqtning qimmatiga kam e'tibor beradi. Noxushlik, ko'ngil g'ashlik, zerikish bilan kechgan vaqtning qadr-qimmatiga esa ortiqcha baho beradi. Shuning uchun ham juda ko'p ishni qilib ulgurishi lozim bo'lgan vaqt eng qisqa vaqt sifatida qabul qilinadi.

Odam masofani va vaqtни idrok qilgani singari fazo-makonni ham idrok qiladi. Fazoni idrok qilish voqyelikdagi narsa va hodisalarning makonda tutgan o'rnini, shaklini, miqdorini hamda bir-biriga nisbatan munosabatlarini uch o'lchovda-balandlik va uzoqlikda bevosita aks ettirishdir.

Predmetlar fazodagi o'miga qara uch burchakli, to'rt burchakli, kub, silindr kabilarga ajratiladi. Katta-kichikligiga qarab esa katta, o'rtacha, kattaroq, kichikroq, fazodagi munosabatlariga qarab, odamga va bir-biriga nisbatan uzoq, yaqin, o'ng, chap, yuqori, past kabilarga bo'lib idrok qilinadi.

Odam fazoni balandlik, kenglik va uzoqlik kabi uch o'lchovda ko'rish sezgilari, teri sezgilari va muskul-harakat sezgilari yordamida qabul qiladi. Fazoni idrok qilishdagi yetakchi qism ko'z bilan idrok qilishdir. Masofani qabul qilishda o'lganidek, fazo ham bir ko'z bilan (monokulyar) va ikki ko'z bilan (binokulyar) idrok qilinadi.

Fazoni ko'rish sezgilari yordamida idrok qilishda akkomadasiya¹ hodisasining ahamiyati kattadir. Ko'zning akkomadasiyasi 20-25 metr doirasida masofani, chuqurlikni, relyefni ko'z bilan idrok qilishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Harakatni to'g'ri idrok qilishning ham odam uchun katta foydasi bor. Harakatni idrok qilish jismlarning fazodagi o'rin almashtirishni aks ettirishdir. Harakat nisbatan va nisbatsiz idrok qilinadi. Agar harakatdagi jism atrofidagi boshqa harakatsiz jismlarga taqqoslab idrok qilinsa, bu harakatni nisbatan idrok qilish deyiladi, agar harakatdagi jism hyech narsaga taqqoslanmay idrok qilinsa, bu harakatni nisbatsiz idrok qilish deyiladi.

Harakatning hamma xillari vaqt davomida voqyea bo'ladi. Shuning uchun harakat tez, sekin bo'lishi mumkin. Harakatning tezligi vaqt birligi (masalan, sekund) bilan o'lchanadi. Bunda jismning harakati bir sekund ichida bosib o'tgan masofa bilan o'lchanadi. Jismning bir sekund ichida bosib o'tgan masofasi harakatning tezligi yoki sekinligini aniqlashga imkon beradi.

Harakat hamma vaqt makon va vaqt bilan bog'liq holda idrok qilinadi. Odam biror jismning harakatini kuzatayotgan vaqtda (masalan, mashinaning harakatini) uning o'ziga nisbatan joyini (uzoq-yaqinligini) va vaqtini ham baravar idrok qiladi.

Shunday qilib, idrokning tezligi, to'laligi, aniq, ravshan va to'g'riligi odam faoliyati uchun juda zarurdir. Shuning uchun yoshlarda to'g'ri idrok qilishni tarbiyalash muhim psixologik-pedagogik muammolardan biridir.

¹ Аккомодация – лотинча «эккомодатио» сўзидан олинган, мослашув, келишув демакдир.

Yoshlarda idrok qilish faoliyati juda erta boshlanadi. Bola yoshining ulg'ayishi jarayonida uning sezgi organlari rivojlana boradi. Bu hol bolada idrok faoliyatining taraqqiy eta borishiga ta'sir ko'rsatadi. Bir yoshga yetmagan bola suyuqliklarning rangiga qarab, ularning mazasini idrok qiladi. Choy yoki shirin choyni, anor suvini ko'rganda go'dak talpinadi. Xuddi shu tarzda tayyorlangan dorini ko'rgach, stakandan o'zini olib qochadi.

Yoshlarning idrok jarayoni asosan ta'lim va tarbiya tufayli har jihatdan takomillashadi, ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati o'sadi. O'z navbatida kuzata bilish muvaffaqiyatli o'qishning zarur sharti sifatida o'quvchilarda qiziqish-havas, fikrlash va iroda bilan birlikda idrok faoliyatini o'stiradi.

Barcha ruhiy sifatlar singari o'quvchilar o'z idroklarini mustaqil idora qila oladilar. Lekin o'quvchi shaxsida ixtiyorsiz idrok, illyuziya hollari ham ko'p uchraydi.

Yoshlarda fazo tasavvurlari, ko'z bilan chamalash, taqqoslay olish, masofa o'lchovlariga doir tushunchalar, vaqt birliklariga oid bilim kun sayin orta boradi va bu ularda to'g'ri va to'liq idrok qilish qobiliyatining o'sishiga barakali ta'sir etadi. Shu tarzda bilim va tarbiya ta'sirida yoshlarda muayyan idrok obyektlarini nazariy va amaliy maqsadlar uchun to'liq va aniq qabul qilish imkoniyati vujudga keladi.

Hozirgi sharoitda yoshlarda idrok sifatlarini o'stirish deganda idrokning tezligi, to'laligi, ravshanligi, aniqligi nazarda tutiladi.

Idrokning tezligi soatning o'n, yuz va mingdan bir qismi, ba'zan esa sekundlar bilan o'lchanadi. Uning to'laligi idrok obyekti belgilarining miqdori va xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Idrokning aniqligi idrok tisollari idrok qilinayotgan narsalarga muvofiqlikda namoyon bo'ladi.

Idrok sifatlarini o'stirishning shaxs uchun ahamiyatchi shundaki, idrok odamning olamni bilishning asosi hisoblanadi, odamning barcha bilismlari sezgilar va idrokdan vujudga keladi, inson xotirasining mahsuliga aylanadi va uning tafakkuri, xayoli, emosional holatlari va irodaviy harakatlariga asos bo'ladi. Demak, shaxsda idrok sifatlarining o'sishi ta'sirotlari mohiyatini tez va to'g'ri tushunishga imkon beradi hamda ta'lim va tarbiya jarayonining jadallashuvida muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Yoshlarda idrokni tarbiyalashning yana bir muhim sharti ularda turmush tajribasining orta borishidir. Tajribaning yo'qligi tufayli go'dak bolalarda idrok doirasi juda tez bo'ladi. Psixolog M.Vohidovning ta'kidlashicha, go'dak bolalarning birmuncha aniqroq idrok qilishlari asosan uch-to'rt oylik davrda boshlansa ham, ammo idrok qiladigan narsalarning doirasi hali juda tor bo'ladi. Bola to'rt-besh oylik bo'lganda uning idroki mazmun jihatidan boyib, ancha takomillashadi.

Bola yarim yoshga to'lganda unda ko'rish va teri sezgilari ancha rivojlanadi. Bu davrda bola o'z atrofidagi narsalarni idrok qila oladi. Shu tarzda bolaning yoshi ulg'aygan sayin idrok mazmuni ham boyiydi. Oila muhitining ta'sirida bolaning ruhiy faoliyati har tomonlama o'sadi, unda kuzatuvchanlik, predmetlar bilan to'g'ri munosabat tarkib topadi, diqqat barqarorlashadi.

Bola idrokining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlardan yana biri bog'cha va yaslilarda olib boriladigan ko'p qirrali tarbiyaviy tadbirlardir.

Keyinschalik maktab ta'limi va tarbiyasi ta'sirida o'quvchilik faoliyatining birinchi kunidan boshlab o'quvchining idroki sistemali ravishda taraqqiy eta boradi. O'rgatilishi lozim bo'lgan har bir narsani o'quvchining to'g'ri va to'liq idrok qilishi uchun zarur bo'lgan tadbirlar hammasi amalga oshiriladi. O'qituvchi bolaning o'rganiladigan narsalarini yuzaki idrok qilishga yo'l qo'ymasligi kerak.

Dars jarayoni, darsdan tashqari tadbirlarning hammasi o'quvchidan aniq maqsadga qaratilgan ixtiyoriy idrokni talab qiladi. Busiz o'quvchi bilimlarni o'zlashtira olmaydi. Demak, maktab muhiti o'quvchidan ongli idrok sifatlarini talab qiladi. Bu talablarga to'g'ri javob berish o'quvchining tabiiy zaruriy ehtiyojiga aylanadi.

Shunday qilib, maktab muhiti va ta'lim-tarbiyasi o'quvchilarda bilimlarni va voqea-hodisalarni to'g'ri idrok qilishining shakllanishiga barakali ta'sir ko'rsatadi.

